IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

IJTIMOIY NEMAT VA UNI TAQDIM ETISH YO‘LLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

Abduhalimova Dilbar Zokir qizi
Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti
1M-26 IQ guruhi 1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24014297

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy ne’matlarning iqtisodiy mohiyati, ularning jamiyat farovonligini ta’minlashdagi o‘rni hamda aholiga taqdim etishning samarali yo‘llari tadqiq etilgan. Shuningdek, ijtimoiy ne’matlarning asosiy xususiyatlari, jumladan, raqobatsizlik va iste’moldan chetlashtirishning cheklanganligi kabi jihatlari iqtisodiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Tadqiqotda Navoiy viloyati misolida ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport infratuzilmasi, ichimlik suvi, ekologik xavfsizlik va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarni aholiga yetkazish holati hamda ularni takomillashtirish imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, davlat va xususiy sektor hamkorligi, mahalliy budjet mablag‘laridan samarali foydalanish hamda hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib ijtimoiy ne’matlarni taqsimlash mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: Ijtimoiy ne’mat, jamoat ne’matlari, davlat sektori, mahalliy budjet, ijtimoiy infratuzilma, davlat-xususiy sheriklik, ta’lim xizmatlari, sog‘liqni saqlash, hududiy rivojlanish, aholi farovonligi, iqtisodiy samaradorlik, Navoiy viloyati.

Аннотация: В статье рассматривается экономическая природа социальных благ, их роль в обеспечении общественного благосостояния, а также эффективные методы их предоставления населению. С экономической точки зрения анализируются ключевые характеристики социальных благ — в частности, неконкурентность в потреблении и ограниченная возможность исключения отдельных лиц из процесса их потребления. На примере Навоийской области исследуется текущее состояние предоставления населению услуг социального значения (таких как образование, здравоохранение, транспортная инфраструктура, обеспечение питьевой водой, экологическая безопасность) и рассматриваются возможности для их улучшения. Кроме того, в работе представлены предложения по развитию государственно-частного партнерства, обеспечению эффективного использования средств местных бюджетов и совершенствованию механизмов распределения социальных благ с учетом региональных потребностей.
Ключевые слова: социальные блага, общественные блага, государственный сектор, местный бюджет, социальная инфраструктура, государственно-частное партнерство, образовательные услуги, здравоохранение, региональное развитие, общественное благосостояние, экономическая эффективность, Навоийская область.

Abstract: This article examines the economic nature of social goods, their role in ensuring societal well-being, and effective methods for their provision to the population. It also explores

the key characteristics of social goods—specifically non-rivalry and the limited feasibility of excluding individuals from their consumption—from an economic perspective. Using the Navoi region as a case study, the research focuses on the current state of delivering services of social importance—such as education, healthcare, transport infrastructure, drinking water, and environmental safety—to the population, as well as opportunities for their improvement. Furthermore, the study develops proposals for fostering public-private partnerships, ensuring the efficient use of local budget funds, and refining mechanisms for the distribution of social goods based on regional needs.

Keywords: Social goods, public goods, public sector, local budget, social infrastructure, public-private partnership, educational services, healthcare, regional development, public well-being, economic efficiency, Navoi region.

Ijtimoiy nemat o‘zi nima? Ijtimoiy nemat bu- jamiyat a'zolarining umumiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi, barcha fuqarolar foydalanishi mumkin bo'lgan va odatda davlat yoki jamoaviy organlar tomonidan ta'minlanadigan resurs va xizmatlardir. Ijtimoiy nematlar - aholining ma’lum bir guruhlari yoki butun jamiyatga taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar, chunki ularni bo’laklarga bo’lib alohida shaxslarga sotish mumkin emas. Ular faqat jamoa tomonidan iste’mol qilinishi mumkin, xolos. Huquqiy tartib, davlat mudofaasi, atrof-muhitni asrash, ijtimoiy dasturlar va shu kabilar ular tarkibiga kiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash, aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashda ijtimoiy ne’matlarning o‘rni beqiyosdir. Ijtimoiy ne’matlar jamiyat a’zolarining umumiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan, ko‘pincha davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yoki tartibga solinadigan iqtisodiy ne’matlar hisoblanadi. Jumladan, milliy mudofaa, jamoat xavfsizligi, ko‘cha yoritilishi, ekologik muhofaza kabi xizmatlar klassik jamoat ne’matlariga misol bo‘la oladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va transport xizmatlari esa ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, biroq iste’mol xususiyatlariga ko‘ra sof jamoat ne’matlaridan farqlanuvchi xizmatlar hisoblanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy ne’matlarni samarali taqdim etish masalasi iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Chunki aholining ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish nafaqat davlatning iqtisodiy imkoniyatlariga, balki mavjud resurslardan oqilona foydalanish, xizmatlarni hududlar kesimida adolatli taqsimlash va ularning sifatini oshirishga ham bevosita bog‘liqdir. Mazkur masala Navoiy viloyati misolida alohida ahamiyat kasb etadi. Viloyatning hududiy joylashuvi, aholi punktlarining bir-biridan uzoqligi, sanoat korxonalarining hududiy taqsimlanishi hamda tabiiy-iqlim sharoitlari ijtimoiy ne’matlarni aholiga yetkazib berishda o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Xususan, chekka hududlarda ta’lim va tibbiyot muassasalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash, transport infratuzilmasini rivojlantirish va ekologik muammolarni hal etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Navoiy viloyatida ijtimoiy ne’matlarni taqdim etishning mavjud mexanizmlarini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda aholining ijtimoiy ehtiyojlarini to‘liqroq qondirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi. Ijtimoiy ne’matlarni aholiga taqdim etish hududning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy infratuzilmasi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat bilan chambarchas bog‘liq. Navoiy viloyatida ushbu

jarayon ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport, ichimlik suvi ta’minoti, ekologik muhofaza va jamoat xavfsizligi kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Viloyatda ijtimoiy ne’matlarni taqdim etishning o‘ziga xos xususiyati uning hududiy tarkibi bilan izohlanadi. Navoiy shahri, Zarafshon shahri, G‘ozg‘on shahri hamda tumanlar o‘rtasida aholi zichligi, iqtisodiy faoliyat va infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi jihatidan farqlar mavjud. Shu sababli ijtimoiy ne’matlarni barcha hududlarda bir xil usulda taqdim etish emas, balki har bir hududning ehtiyojidan kelib chiqib tashkil etish muhim hisoblanadi.

Ta’lim tizimi jamiyat uchun muhim ijtimoiy ne’mat va ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlardan biri hisoblanadi. Navoiy viloyatida maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, professional ta’lim muassasalari va oliy ta’lim tashkilotlari orqali aholining bilim olish ehtiyojlari qondiriladi. Navoiy viloyatida ijtimoiy sohaning ayrim yo‘nalishlarida rivojlanish jarayonlari kuzatilmoqda. Xususan, 2020/2021-o‘quv yilida oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni 17 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024/2025-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 43 ming kishiga yetgan. Ya’ni talabalar soni 2,5 barobar oshgan. Shuningdek, 2025-yilning yanvar–avgust oylarida sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi 207,4 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,2 foizga o‘sgan. Bu ko‘rsatkichlar ijtimoiy xizmatlar sohasidagi iqtisodiy faollikni ifodalaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni bo‘yicha esa Xatirchi tumani 504 ta bilan birinchi o‘rinda turadi. Qiziltepa tumanida 216 ta, Navbahor tumanida 166 ta va Karmana tumanida 162 ta tashkilot faoliyat yuritadi. Biroq tashkilotlar sonining ko‘pligi ta’minlanganlik darajasi yuqoriligini har doim ham anglatmaydi. Masalan, Xatirchi tumanida tashkilotlar soni eng yuqori bo‘lsa-da, 3–6 yoshli bolalarni qamrab olish darajasi 74,2 foizni tashkil etgan. Navoiy shahrida esa ushbu ko‘rsatkich 98,9 foizga teng. Eng past qamrov Tomdi tumanida (59,4 foiz) va Nurota tumanida (64,8 foiz) kuzatilgan. Bu holat mazkur hududlarda maktabgacha ta’lim xizmatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Aholi salomatligini muhofaza qilish davlatning muhim ijtimoiy vazifalaridan biridir. Viloyatda shifoxonalar, oilaviy poliklinikalar, oilaviy shifokorlik punktlari va boshqa tibbiyot muassasalari orqali tibbiy xizmatlar ko‘rsatiladi. Ayniqsa, olis qishloq hududlarida yashovchi aholining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish, zamonaviy diagnostika uskunalarini joriy etish va tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. 2024-yil yakunida viloyatda jami 44 ta shifoxona va 353 ta ambulatoriya-poliklinika muassasasi faoliyat yuritgan. Shifoxonalar sonining 21 tasi, ya’ni 47,8 foizi Navoiy shahriga to‘g‘ri keladi. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari bo‘yicha ham Navoiy shahri 99 ta bilan yetakchilik qilmoqda. Xatirchi tumanida 47 ta, Karmana tumanida 43 ta va Qiziltepa tumanida 39 ta muassasa mavjud. G‘ozg‘on shahrida statsionar shifoxona qayd etilmagan, biroq 2 ta ambulatoriya-poliklinika muassasasi, Nurota va Tomdi tumanlarida esa bittadan shifoxona faoliyat yuritishi hududiy tibbiy infratuzilmani rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq bu hududlarda aholiga tibbiy xizmat umuman ko‘rsatilmaydi degani emas: ambulatoriya muassasalari ham xizmat ko‘rsatadi. Yuqoridagi tahlillar singari boshqa ijtimoiy nemat turlarini ham turli xil tahlillar asosida ko‘rib chiqish, aholi sonidan va ehtiyojidan kelib chiqib ijtimoiy nematlar turlari, soni va sifatini oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy ne’matlar jamiyat farovonligini ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish va hududlarning barqaror iqtisodiy taraqqiyotiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy viloyati misolida ijtimoiy ne’matlarni taqdim etish

jarayoni ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport, kommunal infratuzilma va ekologik muhofaza yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy ne’matlarni taqsimlashda hududiy xususiyatlar va aholi ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, olis tuman va qishloqlarda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, mahalliy budjet mablag‘laridan samarali foydalanish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 526 b.
2. Shodmonov Sh., Raxmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Zamin nashr, 2021.
3. Mamaraximov B.E., Abdullayeva M.K. Ijtimoiy iqtisodiyot va davlat siyosati. – 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
5. https://.lex.uz/
6. https://stat.uz/
7. https://siat.stat.uz/
8. https://navstat.uz/